

## HOZIRGI ZAMONDA INGLIZ TILINI O'RGATISHNI INTERAKTIV METODLARI

L. Abdullayeva <sup>1</sup>*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada chet tillarini o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan mamlakatlar qatori Vatanimiz O'zbekistonda ham zamonaviy talabga aylandi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida bugun chet tillariga ayniqsa ingliz tiliga e'tibor kuchaymoqda. Ingliz tili o'qituvchilarining innovatsion metodlaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari yoritib berilgan.

*Kalit so'zlar:* xorijiy til, tilni o'rganishdagi muammolar, muammolarga yechim, innovatsiya, kommunikatsiya, didaktika.

Kirish: Bugungi kunda dunyoda gaplashiladigan tillar soni 600ga yaqin. Ular bir-biridan rivojlangan va o'ziga xos oilaviy daraxtlarni tashkil eta oladi. Bular oilasida nemis tili oilasiga mansub bo'lganlaridan biri – bu ingliz tili. Hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri bu xorijiy tillarni ikkinchi til sifatida o'rgatish va shu orqali yosh avlodni Ona Vatanga muhabbat, sadoqat, yuksak iftixor, milliy g'urur kabi umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir.

Va shuningdek, yurtimizda oxirgi 2-3 yil davomida yosh avlodlarni asosan ingliz tilini o'rganishga jalb qilish va ulardan B1 va C1 darajasidagi milliy (CEFR) va xalqaro (IELTS kabi) sertifikatlarini qo'lga kiritishlari talab qilinmoqda.

“Nima uchun ingliz tilini o'rganishda qiyinchiliklar va muammolar kelib chiqyapti?”

Sababi hozirgi zamonlarning so'z boyligining yo'qligi, konsentratsiyaning pastligi, tartib-intizomning yo'qligi, zerikish va nutq muammosi, jumladan Ingliz tiliga yetarlicha ta'sir o'tkazmaslik, sinf xonalarning yetarli darajda jihozlanmaganligi va malakali o'qituvchilarning yetishmasligidir. Ingliz tilini o'rgatishda bir qancha muammolar quyidagilar:

1. Shovqin qilib, o'qituvchini bezovta qiladi.
2. Sinf o'quvchilarni boshqarishda qiyinchilikka uchraydi.
3. Olomon talabalarni o'rganishga jalb qilish juda ham qiyin.
4. O'quv resurslari barcha talabalar uchun yetarli bo'lmaydi.

Muammolar va qiyinchiliklar bilan birga albatta bularga yechimlar ham yo'q emas.

Quyidagi eng yaxshi yechimlardir:

1. Sinflarda o'quv musobaqalar juda muhim rol o'ynaydi. Bu talabalarni Ingliz tilini o'rganishga majbur qiladi. Masalan: debatlar; viktorinalar va hokazolar.
2. Ma'ruza davomida multimediadan foydalanish. Ko'pincha Ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda eski va an'anaviy usullardan foydalanadilar. Ammo ta'lim maqsadlarida maxsus ishlab chiqilgan yangi qurilmalar va gadjetlar ingliz tilini o'qitish va o'rganishni yaxshilash mumkin. Chunki o'quvchilar kitoblarda yozilgan o'rniga ko'rgazmali tasvirlari, videolar, tovushlar va hokazolarni qiziqib o'rganishadi.

3. O'yinlar orqali o'rgatish

O'yinlar o'quvchilarni ko'proq jalb qiladigan faoliyat turidir. O'yinlar ta'lim va o'rganishda juda ham muhim rol o'ynaydi.

Har xil turdagi jumalarda yetishmayotgan so'zni joylashtirish o'yini mavjud. Bu so'z boyligini juda shakllantiradi. Talabalar so'zlarni turlarini va ularning ma'nosini va gapda joylashishini tushunadi.

4. Dars va vaqt jadvali qoidalarni boshqarish. Ingliz tilini o'rganishda qoidalar va intizom juda ko'p rol o'ynaydi. Talabalar telefonlarini o'chirib qo'yishlari, o'rtoqlari bilan gaplashmasliklari, darsga o'z vaqtida kelishi, uy vazifalarni bajarishi va topshirishlari kerak. Agar talabalar undagi qoidalarni buzsa, unga jarima solinishi kerak yoki Ota-Onalariga murojaat qilinishi kerak.

Metodikaning predmeti – chet til predmeti orqali ta'lim – tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o'rgatish ilmi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikani predmeti hisoblanadi. Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip.

Didaktika – o'qitish mazmuni, metodika ta'lim usullari metodlari deyiladi.

Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 2000-yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasi turlicha munosabatlar bildirilganligini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik

<sup>1</sup> Abdullayeva Laziza Xusniddin qizi, SamDCHTI talabasi

L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Chet til o'qitish metodikasida "kommunikativ didaktika" metodi ham alohida ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

- Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi;
  - Mavzu va mazmun muhimligi;
  - Darsdagi asosiy ish shakli: suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash;
  - O'quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e'tibor katta bo'lish zarur;
  - Tushunishdan fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e'tibor berish;
  - Ma'noni ochishda, harakat ko'lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko'rish tayanchi) muhim o'rin tutadi;
  - Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatni o'rganish;
  - Tildagi og'zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish ham nazarda tutiladi.
- Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

- [1]. Yo'ldoshev Z. *"Yangi pedagogik texnologiyalar yo'nalishlari i muammolari.*
- [2]. Zaripov F. *Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma (Qarshi 1981).*
- [3]. Xoshimov O. Yoqubov I. *"Ingliz tili o'qitish metodikasi".*